

INGLIZ TILINI O'RGANISHDA KENG TARQALGAN XATOLAR

Sh. Botirboyeva ¹, G. Habibova ²

Annotatsiya:

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, xorijiy tillarni o'rganishda o'rganish va o'rganilayotgan tilda ravon gapira olish ushbu tilni o'rganishga Bugungi kunda rivojlanib borayotgan globallashtirish zamonida xorijiy tillarni puxta egallagan yosh kadrlarga bo'lgan talab kun sayin oshib bormoqda. Bu esa yoshlar orasida xorijiy tillarga qiziquvchilarning ortishiga va chet tillarini o'rganishning keng ommalashuviga zamin yaratadi. Mazkur maqolada xorijiy tillarini yangi o'rganishga kirishgan yoshlar yo'l qo'yadigan ba'zi xatolar, muammoli vaziyatlar va ularning tahlilini ko'rib chiqamiz.

Kalit so'zlar: ingliz tili, xorijiy til strategiya, takrorlash, muhokama, natija, gapirish, tinglash, grammatika, ilg'or g'oyalar.

Yillar, asrlar sinovida toblangan, ko'pni ko'rgan, bugun erkinlik havosidan nafas olib yashayotgan, o'z qadr-qimmatini, insoniy sha'nini, ne-ne ulug' zotlarning vorislari ekanini, o'zligini anglagan, milliy g'urur va iftixorini tiklagan, xalqaro maydonda o'ziga munosib o'rin egallab borayotgan, o'z kuchiga va ertangi kuniga ishongan, o'z yurti, o'z farzandlarining kelajagi farovon bo'lishiga intilayotgan bizning xalqimizni hech qanday kuch to'xtata olmaydi." Yurtboshimizning bu fikrlari yoshlarni doim izlanishda bo'lishga chorlaydi. Buning ustiga yurtimizda yoshlarga bo'lgan e'tibor yuksakdir. Prezidentimizning 10.12.2012 yildagi "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi qarorlariga muvofiq yurtimizda yosh avlodga xorijiy til o'rgatish yanada kuchaytirildi.

Ikkinchi til haqida so'z yuritilganda, unga bo'shqa millat vakillaridan iborat qardoshlar, qo'shnilar tili sifatida qaraladi. Ma'lumki, til kishilarning bir-birlarini yaqindan bilishlari, hurmat-e'zozlashlari, do'stlashishlarida tengi yo'l va omil bo'lib xizmat qiladi.

Hozirgi kunga kelib nafaqat O'zbekistonda balki butun dunyoda ingliz tili keng ommalashmoqda. Bu tilni o'rganish ular xuddi ingliz insonlardek gapirish ko'nikmasiga ega bo'lishi, uning grammatikasini to'g'ri tartibda o'zlashtira olishida ular bir qancha muammo vaziyatlarga duch kelib bir qancha jiddiy muammoli xatolarga yo'l qo'yishmoqda.

Yangi o'rganuvchilarga ingliz tilini qanday o'rgatish haqida o'ylashdan oldin, biz yangi o'rganuvchilar til o'rganish kontekstida kim ekanligini tushunishimiz kerak. Haqiqiy boshlang'ich tilni bilishi nolga ega, bu ingliz tili kabi keng tarqalgan til bilan kam uchraydi. Yangi o'rganuvchilar bilan qayerdan boshlashni bilish juda qiyin, ayniqsa ko'rsatmalar va tushuntirishlar bilan yordam beradigan umumiy tilingiz bo'lmasa. Yangi o'rganuvchilarga ingliz tilini qanday o'rgatish kerakligini o'rganishdan oldin, biz nimani o'rgatish kerakligini ko'rib chiqishimiz kerak. O'quvchilaringiz uchun to'g'ri tarkibni tanlash siz qilishingiz mumkin bo'lgan birinchi va eng muhim qadamlardan biridir.

Ko'pgina o'qituvchilar leksik to'plamlarni o'rgatishdan boshlaydilar, ular raqamlar, hayvonlar yoki oziq-ovqat kabi narsalarni o'z ichiga oladi, chunki ular boshlash uchun oddiy va oson joy kabi ko'rinadi. Biroq, bu leksik materiallar ko'pincha o'quvchilar uchun ahamiyatsiz va yangi o'rganuvchilarga jumlar tuzish va tildan foydalanish uchun zarur bo'lgan tarkibni bermaydi.

Yangi o'rganuvchilar ingliz tilini o'rganayotganda bir qancha xatolarga yo'l qo'yishmoqda. E'tiborimizni shu xatolarga qaratsak. Ulardan biri - bu talaffuzdagi qiyinchiliklar. Ingliz tilida talaffuz boshqa tillarga qaraganda murakkab. Bir xil yozilgan so'zlarning turli talaffuzi yoki farqli yozilgan so'zlarning o'xshash talaffuz qilinishi ko'plab o'rganuvchilarni chalg'itadi. Talaffuzni yaxshilash uchun ingliz tilida film va audiokitoblarni eshitish, tarjima qilmasdan tushunishga harakat qilish foydali. Shuningdek, IPA (International Phonetic Alphabet) dan foydalanib, so'zlarning to'g'ri talaffuzini o'rganish mumkin. Grammatik qoidalar o'zlashtirish qiyinchiligi. Ingliz tilidagi grammatik qoidalar ko'pincha murakkab va qiyin. Masalan, zamonlar tizimi, artikllardan foydalanish, har xil fe'l turlari ko'plab o'rganuvchilarni qiynaydi. Bu muammo global muammo aylangan desak ham mubolag'a bo'lmaydi negaki, bu tilning gapirish ko'nikmasini shakllantirishda harflar yozilganidek o'qilmaydi va bu holatda ko'pchilik no'to'g'ri talaffuz qilishidai va gapirishda ham no'to'g'ri holatda foydalanishiadi.

¹ Botirboyev Shahrizoda G'afur qizi, Samarqand davlat chet tillar instituti talabasi

² Habibova Gulira'no Azizbek qizi, Samarqand davlat chet tillar instituti talabasi

Gapirishdagi qiyinchiliklar. Ingliz tilida muloqot qilish o'rganuvchilar uchun qiyin vazifalardan biridir, chunki ko'pchilik gapirishdan uyaladi yoki xato qilishdan qo'rqadi. Yechim esa, har kuni kichik gaplar va ifodalar bilan boshlash kerak. Muloqot qilish uchun suhbat klublariga yoki onlayn kurslarga qatnashish yaxshi yechim bo'ladi. Va bundan tashqari, partniyor topib u bilan 1 kunda kamida 2 yoki 3 soatdan birga speaking qilish ham speakingni oshirishga katta yordam beradi.

Ko'pgina o'qituvchilar leksik to'plamlarni o'rgatishdan boshlaydilar, ular raqamlar, hayvonlar yoki oziq-ovqat kabi narsalarni o'z ichiga oladi, chunki ular boshlash uchun oddiy va oson joy kabi ko'rinadi. Biroq, bu leksik materiallar ko'pincha o'quvchilar uchun ahamiyatsiz va yangi o'rganuvchilarga jumlar tuzish va tildan foydalanish uchun zarur bo'lgan tarkibni bermaydi.

Har bir yangi so'z va ibora uchun tasvirlarni topish ko'p vaqt talab qilishi mumkin, ammo mavjud materiallardan foydalangan holda vaqtni tejashingiz mumkin. Yangi o'rganuvchilar uchun juda ko'p ajoyib darsliklar mavjud. Shularga qaramay ular to'laqonli foydalana olmayotganligi sababli yangi til o'rganishni o'zlariga qiyin deb bilishadi.

O'rganuvchilar orasida yana bir keng muhokamaga sabab bo'layotgan muhim xatolardan bittasi takrorlashdir. Bu til o'rganishda eng muhim jihatlaridan biri xisoblanadi. Juda kam odam yangi so'z va iboralarni bir marta eshitgandan so'ng eslab qolmasligi mumkin, shuning uchun takrorlash til o'rgatishda juda muhimdir. Talabalarga dars davomida yangi mazmunni bir necha marta ko'rib chiqish orqali eslab qolishlari uchun ko'p vaqt bering. Buning ajoyib usullaridan biri har bir harfga so'zni yoki yangi iboralarni aytishni o'z ichiga oladi. Bu nafaqat talabaga bir iborani bir necha marta takrorlash imkonini beradi, balki til ritmini tushunishga va intonatsiyani yaxshilashga yordam beradi. Takrorlash dars davomida bir xil so'z yoki iborani bir necha marta ko'rib chiqishdan tashqariga chiqadi. Ko'pchilik yangi o'rganuvchilar spiral o'quv dasturidan foydalanish samaralidir. U til o'rganish darslarini bir xil g'oyalarni qayta-qayta keltirib chiqaradigan, lekin tobora ortib borayotgan chuqurlik va murakkablik bilan rejalashtirishni o'z ichiga oladi.

Xoriliy tillarni endi o'rganishga kirishgan o'rganuvchi yoshlarning oldidagi muammoli vaziyatlardan yana biri bu ularning mazkur tilni o'zlashtirish va qo'llash davomida xato gapirib qo'yishdan qo'rqishlaridir. Albatta til o'rganish jarayonida xato qilishdan qochish til o'rganuvchilarda tilga nisbatan mas'uliyatli bo'lish ko'nikmasini shakllantiradi, biroq bu jarayon til o'rganishni sustlashishiga va o'rganuvchi o'quvchining bora-bora bu tilda gapirish ko'nikmasining to'liq rivojlantirishida qiyinchiliklarga uchrashiga olib kelishi mumkin.

Odatda til o'rganuvchi o'rganayotgan tillarida suhbatlashish jarayonida grammatik me'yorlarda xato qilishdan qochishga urinishi bilan chalg'ib gapirilayotgan fikrning mazmunini majhullashishiga sabab bo'ladi. Bu esa tinglovchining fikrni to'liq anglab yetolmasligiga olib keladi. Shuni unutmaslik kerakki har qanday yangi boshlangan ishda xato va kamchiliklar bo'lishi bu tabiiy hol. Yangi til o'rganuvchilarning nutqidagi talaffuz buzilishlari va grammatik xatoliklar doimiy o'z ustida ishlash va mazkur tilda gapirish amaliyotini oshirish orqali o'z yechimini topadi. Har doim xato qilishdan qo'rmaslik kerak shu sababli asosan o'smirlar orasida uyalish yokida atroflardagilarning mazah qilishidan qo'rqishi tabiiy holatga aylangan. Bu esa eng katta xatolardan biri hisoblanadi.

Chet tillarini o'rganishga kirishayotgan yangi o'rganuvchilar yo'l qo'yadigan yana bir xatolardan biri bu o'rganuvchilarning o'qituvchi ko'magiga haddan ortiq bog'lanib qolishi va o'z ustida ishlashdan qochishlaridir. Albatta til o'rganish jarayonida o'qituvchining tushuntirish va yordamlariga tayanish optimal holat, ammo o'rganuvchilarning o'z ustida ishlashdan qochishi yohud o'z ustida kam ishlashi, mustaqil ishlash jarayonida yuzaga keladigan til o'rganish bilan bog'liq kichik murakkabliklarga yechim topishga urunmasliklari bora-bora o'rganuvchilarning til o'rganish ko'nikmalarining sekinlashishiga va kam natija berishiga olib keladi. Shuni unutmaslik kerakki xorijiy tilga doir ko'nikmalarni aynan bir shaxsning nutqiga tayanib qurib bo'lmaydi, chunki odatda o'qituvchilarning o'sha xorijiy tildagi nutqi o'sha xorijiy tilda so'zlashuvchi tub aholi nutqi bilan ancha farqqa ega bo'ladi. Bunday muammolarga duch kelmaslikning eng to'g'ri yo'llaridan biri bu o'sha tildagi kinolarni ko'rish va podcast va radio eshittirishlarni tinglashdir. Nafaqat ingliz tili balki yangi tilni o'rgaishni boshlaganda albatta atrof muhitning xuddi o'sha sharoitda bo'lishi, ko'proq o'rganilayotgan tilda musiqalar eshitishi, kinolar ko'rishi har bir o'rganuvchi uchun foydali tomonlardan bittasidir.

Til jiddiy kirishishni talab etadi. Til o'rganishga yuzaki emas balki jiddiy yondashishgina ushbu tilni, undagi murakkabliklarni to'liq tushunishga va kelajakda ushbu tilda qiyinchiliklarsiz muloqot qilishga yo'l ochadi.

Xulosa o'rinda shu aytish joizki, xorijiy tillarni o'rganish jarayonida xatolarga yo'l qo'ymaslik va muammolarga duch kelmaslik uchun til o'rganishga nisbatan mas'uliyatliroq bo'lish, muntazam o'z ustida ishlab borish lozim. Nafaqat til o'rganish, balki har qanday vazifada muvaffaqiyatga erishish uchun doimiylikka amal qilish lozim. Shundagina o'rganilayotgan tilni to'liq egallashga erishish mumkin. Ingliz tilini o'rganishda duch kelinadigan qiyinchiliklar murakkab tuyulsa-da, tegishli strategiyalar yordamida ularni yengish mumkin. Amaliy mashqlar, ko'p tinglash va suhbat orqali til ko'nikmalarini rivojlantirish o'rganuvchining muvaffaqiyatiga hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. F.M. Muhammadjonov. *"O'rta maktab o'quvchilarining ingliz tilini o'rganishda duch keladigan qiyinchiliklar"*. Maqola.
- [2]. J.Jalolov *"Chet tili o'qitish metodikasi"* 2012.
- [3]. R.Z.Bahodirovna *"Ingliz tilini o'rganishda uchraydigan keng tarqalgan qiyinchiliklar va ularni yengish strategiyalari"*. Maqola.
- [4]. Z.B.Sabirova *"Ingliz tilini o'rgatishdagi ayrim muammolar"*. Maqola.
- [5]. Z.J.Bozorova *"Ingliz tilini o'rganishda keng tarqalgan xatolar"*. Maqola.